

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI BIOFIZIKA VA BIOKIMYO
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.B.01.13 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BIOFIZIKA VA BIOKIMYO INSTITUTI

ERNAZAROV ZAFARJON MAMUROVICH

**AYRIM IZOXINOLIN ALKALOIDLARI VA ULARNING
KON‘YUGATINI MITOXONDRIYA FUNKSIYASIGA TA‘SIRI HAMDA
ULARNING ANTISTRESS XOSSALARI**

03.00.02 – Biofizika va radiobiologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Ernazarov Zafarjon Mamurovich

Ayrim izoxinolin alkaloidlari va ularning kon'yugatini mitoxondriya funksiyasiga ta'siri hamda ularning antistress xossalari.....3

Эрназаров Зафаржон Мамурович

Влияние некоторых изохинолиновых алкалоидов и их конъюгата на функции митохондрий а также их антистрессовые свойства21

Ernazarov Zafarjon Mamurovich

Influence of some isoquinoline alkaloids and their conjugate on mitochondrial functions and their anti-stress properties40

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....44

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI BIOFIZIKA VA BIOKIMYO
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.B.01.13 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BIOFIZIKA VA BIOKIMYO INSTITUTI

ERNAZAROV ZAFARJON MAMUROVICH

**AYRIM IZOXINOLIN ALKALOIDLARI VA ULARNING
KON‘YUGATINI MITOXONDRIYA FUNKSIYASIGA TA‘SIRI HAMDA
ULARNING ANTISTRESS XOSSALARI**

03.00.02 – Biofizika va radiobiologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/B539 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Biofizika va biokimyo institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ibb-nuu.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Pozilov Ma'murjon Komiljonovich biologiya fanlari doktori
Rasmiy opponentlar:	Nasirov Kabul Erkinovich biologiya fanlari doktori, professor Urmanova Gulbaxor Urinbayevna biologiya fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	Andijon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti Biofizika va biokimyo instituti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.B.01.13 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil «___» _____ soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil:100174,Toshkent shahri, Olmazor tumani, Talabalar shaharchasi, Universitet ko'chasi, 174-uy. Tel.: (99871) 246-68-96).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universiteti Biofizika va biokimyo instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№___ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Talabalar shaharchasi, Universitet ko'chasi, 174-uy. Tel.: (99871) 246-68-96, e-mail: ibb-nuu@mail.ru; mamurjon2281@mail.ru.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2023 yil «___» _____dagi №_____ raqamli reestr bayonnomasi).



Sabirov Ravshan Zairovich
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
b.f.d., akademik

Kurbannazarova Ra'noxon Sharapovna
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi v.b., b.f.d., professor

Axmedjanov Iskandar Gulyamovich
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda, dunyo miqyosida kimyo sanoatini rivojlanishi, oziq-ovqat tarkibidagi sintetik moddalarning ruxsat etilgan me'yorlardan ortib ketishi va aholi orasida jismoniy mashqlar yetishmasligi bilan bog'liq zamonaviy turmush tarzi birinchi navbatda oksidlanishli stressga aloqador patologiyalarni ko'payishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, atrof muhitda ksenobiotiklarning ortishi va ularning zararli ta'sir etishi natijasida jigar hujayralarini oksidativ stressga (OS) uchrashi fiziologik va biokimyoviy jarayonlarni buzilishiga olib kelmoqda. Shunga ko'ra, jigar hujayralarini OS dan himoya qiluvchi samarali gepatoprotektor ta'sirga ega yangi farmakologik vositalarni izlab topish va davolashning samarali usullarini ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda jahonni rivojlangan ilmiy markazlarida og'ir metallar ta'sirida jigar hujayralarida OS ning rivojlanishi va mitoxondriyada erkin radikallarning hosil bo'lishi natijasida membranaviy disfunktsiyalarni aniqlash hamda biofaol moddalar bilan davolash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, jumladan, oksidlovchi va antioksidant tizimlar o'rtasidagi nomutanosiblik natijasida yuzaga keladigan OS ko'rsatkichlarini tahlil qilish, ko'plab patologik jarayonlarning patogenezini ochishga va ularning paydo bo'lish xavfini baholashga katta e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda, antioksidant xususiyatlarga ega bo'lgan tarkibida biofaol moddalar saqlagan sitoprotektor va gepatoprotektor dori vositalarini yaratishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada jumladan, o'simliklardan biofaol moddalarni ajratib olish va sintez qilish yo'lga qo'yilgan hamda ularni organizmga antioksidant va antistress ta'sir etish mexanizmlari aniqlangan. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida¹ «...ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, ilmiy va innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish» vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda o'simlik moddalari asosida sintez qilingan gepatoprotektor faollikka ega bo'lgan birikmalarni ta'sir mexanizmlarini aniqlash, faol dozalarini baholash va davolash amaliyotiga tadbiiq etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabrdagi PF-6097-son «Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 avgustdagi PQ-4805-son «Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli bo'lgan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida» gi Farmoni.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VI «Tibbiyot va farmakologiya» ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida og‘ir metallarning to‘qimalarda to‘planishi, organizmda OS rivojlanishi, hujayralar va mitoxondriyalarning funksiyalari buzilishi va ularni o‘simlik birikmalari yordamida korreksiyalashga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. OS bir nechta metabolik, surunkali kasalliklar va saraton kasalliklarining rivojlanishi bilan bog‘liqligi aniqlangan (Aminjan et al., 2019). Hujayrada OS ni keltirib chiqaruvchi erkin radikallarni redoks reaksiyalar bilan bog‘liq kimyoviy jarayonlarda hosil bo‘lishi haqidagi dalillar isbotlangan (Nathan et al., 2013). OS hujayraning shikastlanishiga, DNK ni tiklash tizimining buzilishiga va mitoxondriya disfunktsiyasiga olib kelishi mumkin, bularning barchasi qarish jarayonini tezlashtirishi hamda neyrodegenerativ kasalliklar rivojlanishining asosiy omillari ekanligi aniqlangan (Gandhi and Abramov, 2012). Long Ma va boshqalar (2017) olib borgan tadqiqotlarda Pb^{2+} ta’sirida jigar mitoxondriyasi nafas olish fermentlari komplekslarini ingibirlanishi hamda III kompleks Pb^{2+} - indutsirlagan kislorodning reaktiv turlari (ROS – reactive oxygen species) hosil bo‘lishining asosiy manbai ekanligi aniqlangan (Long et al., 2017).

MDH davlatlarida OS ga qarshi V.P.Skulachev va uning jamoasi SkQ nomi ostida plastokinonlar asosida mitoxondriyalarga mo‘ljallangan yangi antioksidantlarni ishlab chiqdi va sinovdan o‘tkazdi (Skulachev, 2007). M.Ye.Aksenova (2000) tomonidan og‘ir metallarni sitotoksikligi hujayrada lipidlarni pereksli oksidlanishini kuchayishi, mitoxondriyada oksidlanishli fosforlanish (OF) jarayonini ingibirlanishi va hujayraning Ca^{2+} -gomeostazini buzilishi kabi uchta bir-biriga bog‘liq bo‘lgan mexanizmlar asoslab berilgan (Aksenova, 2000).

Respublikamizda prof. M.I.Asrarov va uning shogirdlari tomonidan Pb^{2+} , Cd^{2+} va As^{2+} jigar mitoxondriya funksiyalariga ta’siri va uni biofaol moddalar bilan

k
o
r
r

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Biofizika va biokimyo instituti molekular biofizika laboratoriyasining «normal fiziologiya va patologiya, shuningdek endokrin tizimining asosi sifatida bioenergetik jarayonlarning molekular biofizikasi sohasida tadqiqotlar olib borish» yo‘nalishidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi digidrokversetin, ayrim izoxinolin alkaloidlari va ĐKV-11 kon’yugatini jigar mitoxondriyasi funksional holatiga ta’sirini aniqlash hamda ularning antistress xossalarini baholashdan iborat.

b
o
,
v

Tadqiqotning vazifalari:

in vitro tajribalarda jigar mitoxondriyasi megaporasi (mitochondrial permeability transition pore, mPTP) holatiga, Fe^{2+} /sitrat bilan chaqirilgan LPO, va ATF ga bog‘liq kaliy kanal (mitoK_{ATF}-kanal) faolligiga digidrokversetin (DGK), izoxinolin alkaloidlari, DKV-11 kon‘yugati ta‘sirini aniqlash hamda ularni antiradikal faolligini baholash;

in vitro tajribalarda Pb^{2+} ionlari ta‘sirida jigar mitoxondriyasi membranalarida LPO jarayonida kislorod sarfining o‘zgarishiga DGK, izoxinolin alkaloidlari va DKV-11 kon‘yugati ta‘sirini aniqlash;

$PbCl_2$ bilan chaqirilgan OS modelida kalamush jigar mPTP holatiga, mitoK_{ATF}-kanali faolligiga, DGK, izoxinolin alkaloidlari va DKV-11 kon‘yugati ta‘sirini tavsiflash;

OS modelida kalamush jigar mitoxondriyasi Fe^{2+} /sitrat yordamida chaqirilgan LPO jarayoniga, malon dialdehid (MDA) miqdoriga, antioksidant fermentlar (SOD, katalaza) faolligiga, nafas olish va OF jarayoniga DGK, izoxinolin alkaloidlari hamda DKV-11 kon‘yugati ta‘sirini tahlil qilish;

Tadqiqotning ob‘ekti sifatida yetuk laboratoriya oq kalamushlari, kalamush jigar mitoxondriyalari, mPTP, mitoK_{ATF}-kanali, og‘ir metallar ($PbCl_2$, $PbC_4H_6O_4$), DGK va ayrim izoxinolin alkaloidlari hamda DKV-11 kon‘yugati olingan.

Tadqiqotning predmeti kalamush jigar mitoxondriyalarini funksional parametrlari, oq kalamushlarda $PbCl_2$ bilan chaqirilgan OS modeli, DGK va ayrim izoxinolin alkaloidlari hamda DKV-11 kon‘yugatini membranafaol xossalari va OS ta‘sirida bo‘ladigan buzilishlarni korreksiyalashdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishini bajarilishida biofizika, fiziologiya va biokimyoda keng qo‘llaniladigan differensial sentrifugalash, fotometriya, spektrofotometriya va polyarografiya kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

DGK flavonoidi, izoxinolin alkaloidlari va DKV-11 kon‘yugati jigar mPTPning Ca^{2+} -ga bog‘liq ochilishini ingibirlashi hamda mitoK_{ATF}-kanaliga faollovchi ta‘siri aniqlangan;

in vitro tajribalarda mitoxondriya membranasi LPOda kislorod sarfi ortishini DGK va DKV-11 kon‘yugati me‘yoriy darajaga keltirganligi aniqlangan;

organizmning $PbCl_2$ intoksikatsiyasi bilan bog‘liq OS sharoitida DGK va DKV-11 kon‘yugati jigar mPTPni ingibirlashi hamda mitoK_{ATF}-kanalini faollashtirishi aniqlangan;

$PbCl_2$ intoksikatsiyasiga bog‘liq OS sharoitida DGK va DKV-11 kon‘yugati jigar mitoxondriyasi membranalarida Fe^{2+} /sitratga bog‘liq LPOni ingibirlashi hamda OF samaradorligini oshirishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

DGK flavonoidi, izoxinolin alkaloidlar va DKV-11 kon‘yugatining hujayrada energetik metabolizm buzilishlarini korreksiya qilishi istiqbolda samarali gepatoprotektor dori vositalar yaratishga asos bo‘lishi mumkin;

DGK flavonoidi, izoxinolin alkaloidlar va DKV-11 kon‘yugatining OS da antioksidant faolligini namoyon etishi va mPTP ingibirlashi asosida yangi antistress

vositalar yaratish istiqbollarini ochadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotlarda fiziologik, biofizik tadqiqot usullarini qo'llash orqali olinganligi bilan tasdiqlanadi. Olingan natijalarni qayta ishlashda o'rtacha qiymatning ishonchlik interval qiymatlari (Styudent kriteriyasi) hisobga olingan hamda ma'lumotlar OriginPro 8.6 kompyuter dasturi asosida statistik tahlil qilingan. Olingan natijalarning isboti ularning tadqiqot natijalarining retsenziyalangan ilmiy nashrlarda chop etilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mitoxondriya funksional xossalarining OS sharoitida o'zgarishlari va ularga biofaol moddalarning farmakologik ta'sir mexanizmlarini yoritish bilan izohlanadi. Shuningdek, aniqlangan mexanizmlar OS da mitoxondriya darajasidagi buzilishlarni biofaol moddalar ta'sirida korreksiyalash to'g'risidagi ilmiy tasavvurlarni boyitadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati DGK va izoxinolin alkaloidlari hamda ularning modifikatsiyasi asosida olingan DKV-11 kon'yugati yangi dori vositalarini yaratishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. DGK va ayrim izoxinolin alkaloidlari hamda DKV-11 kon'yugatini OS sharoitida jigar mitoxondriyasi disfunktsiyasini korreksiyalash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

1,2,3,4-tetragidroizoxinolin hosilalari va DGK flavonoidi asosida sintez qilingan birikmalarning antistress xossalari bo'yicha natijalardan MUK-2021-42 raqamli «Bir vaqtning o'zida analgetik va mahalliy anestetik faolligi bo'lgan, yangi antiaritmik preparatni yaratish» mavzusidagi amaliy loyihada 1-iril-6,7-dimetoksi-1,2,3,4-tetragidroizoxinolin qatori tuzilishga ega moddalarni sintez qilishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2023 yil 27 yanvardagi №4/1255-194 – son ma'lumotnomasi). Natijada membrana faol birikmalarni yangi vakillarini sintez qilish imkonini bergan;

DGK flavonoidi, F - 18 izoxinolin alkaloidi va ular asosida olingan DKV - 11 kon'yugatni kalamush jigar mitoxondriyasini funksional holatiga ta'siri bo'yicha natijalardan «The project of Medical Center at Training & Research Institute - Jeramba Ilmu Sukses» loyihasida yangi antistress xossaga ega moddalarni tanlab olishda foydalanilgan (University of Gothenburg Research Center of Molecular and Clinical medicine, Sweden 2022 yil 21 oktabrdagi ma'lumotnomasi). Natijada izoxinolin alkaloidlari asosida mitoprotektor va sitoprotektor dori vositalar yaratishda yangicha yondashuvni ishlab chiqish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta halqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 5 ta respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, 4 ta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi foydalanilgan adabiyotlardan tashqari 102 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti hamda predmetlari tavsiflangan, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Mitoxondriya ion kanallarining farmakologik modulyatsiyalash istiqbollari va ularning oksidlanishli stressdagi o'zgarishlari**» deb nomlangan birinchi bobida mitoxondriya ion transportining hujayradagi fiziologik ahamiyati va uning oksidativ stress sharoitidagi o'zgarishi tahlil qilingan. Bundan tashqari og'ir metallarning mitoxondriya funksiyasiga ta'siri va ularning oksidativ stress hosil qilish mexanizmlari hamda ayrim flavonoidlar va izoxinolin alkaloidlarning membrana faol xossalari haqidagi adabiyot ma'lumotlari keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Oksidativ stress modelida mitoxondriyani tadqiq qilish usullari**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotlarni olib borish tartibi, ularni bajarishda foydalaniladigan materiallar, usullar hamda qo'llanilgan o'simlik birikmalari keltirilgan. Jumladan, *Larix sibirica* o'simligidan ajratib olingan DGK va izoxinolin alkaloidlari hamda DKV-11 kon'yugati haqida ma'lumotlar keltirilgan. Tajribalarda differensial sentrifugalash usuli, antiradikal faolliklarni aniqlash, mitoK_{ATP}-kanali o'tkazuvchanligini, mPTP holati, LPO intensivligini spektrofotometrik va mitoxondriya bioenergetik tizimini aniqlashda polyarografik usullardan foydalanildi. Shuningdek, antioksidant ferment faolligini baholash, mitoxondriya oqsil miqdorini aniqlash hamda olingan natijalarni statistik qayta ishlash uslubi tavsiflangan.

Tadqiqotlar 2 bosqichda olib borildi. Birinchi bosqichda *in vitro* tajribalarda kalamush jigar mitoxondriyasi funksional ko'rsatkichlariga DGK va izoxinolin alkaloidlari hamda DKV-11 kon'yugatining ta'siri o'rganilgan. Tadqiqotlarni ikkinchi bosqichida PbCl₂ orqali chaqirilgan oksidativ stress modelida kalamush jigar mitoxondriyasining disfunksiyasiga biofaol moddalarni korreksiyalovchi ta'siri aniqlangan.

Tajribalar uchun tanlab olingan oq erkak kalamushlar (180-200 g) 7 ta guruhga ajratildi. Nazorat uchun olingan I guruh hayvonlariga hech qanday ta'sirov berilmadi. II, III, IV, V, VI va VII guruhlarga sutkada bir marta 7 kun davomida 10 mg/kg miqdorda PbCl₂ peroral yo'l orqali tajriba hayvonlari ozuqasiga qo'shib berib borildi. Keyingi 7 kun davomida sutkasiga bir marta III guruhga DGK, IV guruhga F-18 alkaloidi, V guruhga DKV-11 kon'yugati, VI va VII guruhlarga F-7 hamda F-19 izoxinolin alkaloidlarini 20 mg/kg miqdorida peroral yo'l orqali berildi.

Dissertatsiyaning «**Digidrokversetin, izoxinolin alkaloidlari va DKV-11 kon'yugatini jigar mitoxondriyasi funksional faolligiga ta'siri**» deb nomlangan uchinchi bobida jigar mitoxondriyasining PTP o'tkazuvchanligiga, mitoK_{ATF}-kanal faolligiga, mitoxondriya membranasi LPOga, mitoxondriyalarning nafas olishi va oksidlanishli fosforlanish jarayoniga va Pb²⁺ ionlari ta'sirida jigar mitoxondriyasi membranalari LPO jarayonida kislorod sarfining o'zgarishiga DGK, izoxinolin alkaloidlari va DKV-11 kon'yugatining ta'siri hamda antiradikal faolliklari tadqiq qilindi.


Jigar mitoxondriyasining PTP o'tkazuvchanligiga digidrokversetin, izoxinolin alkaloidlari va DKV-11 kon'yugatining ta'siri. Tajribalarda mitoxondriya bo'kishi 50 mkM Ca²⁺ ishtirokida amalga oshirildi va 100% deb qabul qilindi. Jigar mitoxondriya bo'kishiga DGK ni yarimmaksimal ingibirlovchi ta'siri 43,5 mkM ni, F-18 alkaloidida 40,4 mkM ni, DKV-11 kon'yugatida esa 22,0 mkM ni, F-7 va F-19 alkaloidlarida 48,7 hamda 55,5 mkM ekanligi aniqlandi, bu esa ularni mitoxondriyalarda membranafaol xossalarini namoyon qildi. Jigar mPTP o'tkazuvchanligiga yarimmaksimal ingibirlovchi konsentratsiyasi asosida olingan faolliklari quyidagi qatorni hosil qiladi: DKV-11 > F-18 > DGK > F-7 > F-19.

Navbatdagi tajribalarda, DGK, izoxinolin alkaloidlar va DKV-11 kon'yugatini mPTP klassik ingibitori siklosporin A (CsA) ning yarimmaksimal ingibirlovchi konsentratsiyasi (0,5 mkM) ta'siri bilan qiyosiy o'rganildi. Olingan natijalarga ko'ra, IM da 50 mkM biofaol moddalar mavjud sharoitda CsA mitoxondriya bo'kishini ingibirlashi aniqlandi. Ushbu holatda 50 mkM DKV-11 kon'yugati mitoxondriya bo'kishini CsA mavjud sharoitda to'liq ingibirlanganligi ma'lum bo'ldi. DGK va izoxinolin alkaloidlar ham CsA bilan mitoxondriya bo'kishini ingibirlanganligi aniqlandi, ammo, ularning to'liq ingibirlovchi xossasi namoyon bo'lmadi. Inkubatsiya muhitida mPTPga CsA (0,5 mkM) bo'lgan sharoitda DGK, kon'yugat va izoxinolin alkaloidlari (50 mkM) ta'sir ettirilganda faollik qatori quyidagi ko'rinishda namoyon bo'ladi: DKV-11 > F-18 > DGK > F-7 > F-19.

Jigar mitoK_{ATF}-kanali faolligiga digidrokversetin, izoxinolin alkaloidlari va DKV-11 kon'yugatining ta'siri. MitoK_{ATF}-kanalining faollanishi hujayraning kislorod bilan ta'minlanish darajasini oshirishi va uni faollashtiruvchi birikmalar bilan tadqiqotlar o'tkazish muhim sanaladi. Tajribalarda kalamush jigar mitoK_{ATF}-kanaliga ATF (200 mkM) mavjud sharoitda DGK va izoxinolin alkaloidlar hamda kon'yugatni konsentratsiyaga bog'liq ta'siri o'rganildi. Bunda DGK ning 25, 50, 75 va 100 mkM konsentratsiyalari jigar mitoK_{ATF}-kanal faolligini nazoratga nisbatan, mos ravishda 39,4%; 52,5%; 64,3% va 69,6% faollashtirishi aniqlandi. Navbatdagi tajribada F-18 alkaloidi mitoK_{ATF}-kanal faolligini 25, 50, 75 va 100 mkM konsentratsiyalari nazoratga nisbatan, mos ravishda 29,3%; 48,3% 59,2% va 68,2% faollashtirishi qayd etildi. DGK va F-18 alkaloidi *in vitro* tajriba sharoitida jigar mitoK_{ATF}-kanali funksional faolligini oshirishi ma'lum bo'ldi. DGKning A xalqasidagi 6 holatdagi uglerod atomi bilan F-18 alkaloidni B xalqasidagi 2 holatdagi azot atomi bilan CH₂ ko'prigi orqali kimyoviy bog' hosil qilishi natijasida sintezlab olingan kon'yugatning (DKV-11) mitoK_{ATF}-kanalga faolligi bir muncha kichik konsentratsiyalarda namoyon bo'ldi. Bunda, DKV-11 kon'yugati 10, 20, 30,

40 va 50 mkM konsentratsiyalari mitoK_{ATF}-kanal faolligini, nazoratga nisbatan, mos ravishda 22,6%; 34,6; 49,2%; 57,3% va 65,6% faollashtirishi qayd etildi. Shuningdek, F-7 va F-19 izoxinolin alkaloidlari ham jigar mitoK_{ATF}-kanaliga faollovchi ta'siri kuzatilgan. Olingan natijalardan shunday xulosalarga kelish mumkin, DGK, kon'yugat va izoxinolin alkaloidlari jigar mitoK_{ATF}-kanaliga aktivator sifatida ta'sir ko'rsatadi, ularning mitoK_{ATF}-kanali ochilishiga yarimmaksimal effektiv konsentratsiyasi asosida olingan faolliklari quyidagi qatorni hosil qiladi: DKV-11 (31 mkM) > DGK (46 mkM) > F-18 (53,5 mkM) > F-7 (62 mkM) > F-19 (67,9 mkM).

DGK, izoxinolin alkaloidlar va DKV-11 kon'yugatining jigar mitoK_{ATF}-kanaliga aktivator sifatidagi ta'siriga yanada ishonch hosil qilish maqsadida, kanalni klassik aktivatori diazoksid bilan qiyosiy tajribalar olib borildi.




1-rasm. Kalamush jigar mitoK_{ATF}-kanaliga diazoksid, DGK flavonoidi, F-18, F-7, F-19 izoxinolin alkaloidlari va DKV-11 kon'yugatini ta'siri. (*P<0,05; **P<0,01; n=6).

Tajribalarni davom ettirib DGK (50 mkM) hamda F-18 (50 mkM), DKV-11 (50 mkM) va F-7 (50 mkM), F-19 (50 mkM) alkaloidlarining jigar mitoK_{ATF}-kanali faolligiga ta'siri o'rganilganda, barcha moddalar, nazoratga nisbatan mitoK_{ATF}-kanalni faollashtirishi aniqlandi (1-rasm).

Inkubatsiya muhitida DGK, izoxinolin alkaloidlar va kon'yugat mavjud bo'lgan sharoitda faollik qatori quyidagi ko'rinishda namoyon bo'ladi: diazoksid>DKV-11>DGK>F-18>F-7>F-19. Demak, DGK, izoxinolin alkaloidlar va DKV-11 kon'yugati mitoK_{ATF}-kanalga faollovchi ta'sir etadi ammo ushbu kanal klassik aktivatori diazoksid singari yuqori faollovchi ta'sir ko'rsatmadi.

Mitoxondriya membranasi LPOga digidrokversetin, izoxinolin alkaloidlari va DKV-11 kon'yugatining ta'siri. Olib borgan tajribamizda DGK, F-18 alkaloidi va DKV-11 kon'yugatining jigar mitoxondriyasi LPO jarayoniga ta'siri baholandi. Birikmalarning mitoxondriya membranasi LPO jarayoni Fe²⁺/sitrat yordamida chaqirildi va *in vitro* tajriba sharoitida olib borildi. Fe²⁺/sitrat LPO jarayonini keskin kuchayishiga olib keldi va bu nazorat, 100% deb olindi. Tajribalarda, DGKning 10, 40, 60 va 100 mkM konsentratsiyalari LPO jarayonini nazoratga nisbatan, mos ravishda 30,0%; 67,0%; 76,0% va 90,0% ga kamaytirganligi aniqlandi (2-rasm, A).

IMda DGKning konsentratsiyasi ortib borishi bilan ularni LPO jarayoniga ingibirlovchi ta'siri yanada kuchli namoyon bo'ldi.



2-rasm. DGK (A) va F-18 alkaloidi (B) hamda DKV-11 kon'yugatining (C) kalamush jigar mitoxondriyasi Fe²⁺-sitrat bilan chaqirilgan LPO jarayoniga ta'siri (*P<0,05; **P<0,01; n=5).


Navbatdagi tajribamizda F-18 alkaloidining (10-100 mkM) kalamush jigar mitoxondriyasi membranasi Fe²⁺/sitrat bilan chaqirilgan LPOga ta'siri o'rganildi. Natijalarga ko'ra, IM da F-18 alkaloidining 10, 20, 30, 40, 50 va 100 mkM konsentratsiyalari mavjud sharoitda, jigar mitoxondriyasi LPOni, nazoratga nisbatan, mos ravishda 34,8%; 56,9%; 62,1%; 70,2%; 73,0% va 89,1% ga ingibirlashi aniqlandi (2-rasm, B). Demak, F-18 alkaloidi Fe²⁺-sitrat bilan chaqirilgan LPO jarayonini tormozlab, mitoxondriyada erkin radikallar generatsiyasini susaytirishi mumkin. Bu esa ularni antioksidant xossalarini tadqiq etishni talab etadi.

Keyingi tajribada DKV-11 kon'yugatining 10, 20, 30, 40, 50 va 100 mkM miqdorlari jigar mitoxondriyasi membranasi LPOni nazoratga nisbatan, mos ravishda 47,1%; 55,9%; 64,0%; 72,0%, 78,2% va 88,2% ga ingibirlashi aniqlandi. Demak, DKV-11 kon'yugati, DGK va F-18 alkaloidiga nisbatan kichik konsentratsiyalarda Fe²⁺-sitrat indutsirlangan LPOga ingibirlovchi ta'sir etishi namoyon bo'ldi (2-rasm, C).

Pb²⁺ ionlari ta'sirida jigar mitoxondriyasi membranalari LPO jarayonida kislorod sarfining o'zgarishiga digidrokversetin, izoxinolin alkaloidlari va DKV-11 kon'yugatining ta'siri. Qo'rg'oshinning hujayra va to'qimalarga toksik ta'sirini turli tabiiy antioksidantlar orqali korreksiyalash eng samarali usullardan hisoblanadi. O'simliklardan ajratib olingan flavonoidlar qo'rg'oshin intoksikatsiyasida OS ning oldini olishi tadqiqotlarda o'z isbotini topgan. Ular molekulyar darajada ta'sir qilib hujayralarda ROS miqdorini kamaytirishi, qo'rg'oshin ionlarini xelatlash orqali toksikligini bartaraf etadi. Tajribada Fe²⁺/ADF bilan indutsirlangan LPO jarayonida mitoxondriyaning kislorod iste'moli ikki fazali kinetika bilan tavsiflandi. Bunda lag-faza va kislorodni jadal iste'mol qilish bosqichlari ajratiladi. Ushbu tajribamizda jigar mitoxondriyasi Fe²⁺/ADF tomonidan indutsirlangan membrana LPO jarayoniga qo'rg'oshin asetatni (PbC₄H₆O₄) 50, 100 va 150 mkM konsentratsiyalarda ta'sir ettirilganda kislorod sarfini nazoratga nisbatan oshganligi

aniqlandi. Bunda muhitga 50 mkM $PbC_4H_6O_4$ qo‘shilganda 1 daqiqa davomida mitoxondriya kislorod sarfi 0,81 O_2 mkg/ml min.ni, 100 mkM da 0,96 O_2 mkg/ml min.ni va 150 mkM da esa 1,01 O_2 mkg/ml min.ni tashkil etdi. Bunga sabab muhitda $Fe^{2+}+H_2O_2$ reaksiyaga kirishishi natijasida gidroksil radikali va Fe^{3+} hosil bo‘ladi. Membrana fosfolipidlarida to‘yinmagan yog‘ kislotalarining ROS bilan oksidlanishi LPOga sabab bo‘ladi, bu esa muhitda kislorod sarfini orttiradi.

Navbatdagi tajribamizda jigar mitoxondriya membrana LPO jarayoniga DKV–11 kon‘yugatni 3, 5, 10, 20 va 30 mkM konsentratsiyalarda ta‘sir ettirilganda mitoxondriya kislorod sarfini 1 daqiqa davomida mos ravishda quyidagicha o‘zgardirdi, 0,87 mkg/ml min., 0,84 mkg/ml min., 0,73 mkg/ml min., 0,39 mkg/ml min. va 0,27 O_2 mkg/ml min.ni tashkil etganligi aniqlandi. Olingan natijalardan quyidagicha xulosaga kelish mumkin. Mitoxondriya membranasini LPOga DKV-11 kon‘yugatini 30 mkM konsentratsiyasi yuqori ingibirlovchi ta‘sir etdi (3-rasm, A va B).




3-rasm. Jigar mitoxondriya membranasida $Fe^{2+}/ADF+PbC_4H_6O_4$ tomonidan indutsirlangan LPO va MDA miqdoriga DKV–11 kon‘yugatning konsentratsiyaga bog‘liq ta‘siri. A – mitoxondriya membranasini LPOga DKV – 11 kon‘yugatni konsentratsiyaga bog‘liq ta‘siri (*Mitocell S 200 mikrorespirometriya bo‘yicha aniqlangan*). B – mitoxondriya membrana LPO jarayonida MDA hosil bo‘lishiga DKV – 11 kon‘yugatni konsentratsiyaga bog‘liq ta‘siri. IM: 175 mM KCl, 10 mM Tris-HCl, 3 mkM rotenon, pH 7,4. (* $P<0,05$; ** $P<0,01$; $n=6$).

Keyingi tajribamizda, IM da Fe^{2+}/ADF hamda $PbC_4H_6O_4$ 150 mkM konsentratsiyasi mavjud sharoitda mitoxondriya membranasining LPOni yuqori darajaga olib chiqdi va bu natijani nazorat sifatida qabul qildik. Bunda nazorat 1 daqiqa davomida kislorod sarfi 1,04 O_2 mkg/ml min.ni tashkil etdi. Tajribani davom ettirib IM da DGK ni 10, 20, 40 va 60 mkM konsentratsiyalari mavjud sharoitda 1 daqiqa davomida mitoxondriya kislorod sarfi mos ravishda, 0,95 O_2 mkg/ml min., 0,69 O_2 mkg/ml min., 0,53 O_2 mkg/ml min. va 0,27 O_2 mkg/ml min.ni tashkil etganligi aniqlandi. Navbatdagi tajribamizda F-18 alkaloidi 60 mkM, F-19 va F-7 izoxinolin alkaloidlarining 80 mkM konsentratsiyalari ta‘sir ettirilganda mitoxondriya kislorod sarfini 1 daqiqa davomida mos ravishda 0,66 O_2 mkg/ml min., 0,54 O_2 mkg/ml min. va 0,63 O_2 mkg/ml min. ga o‘zgarishi aniqlandi. Muhitda izoxinolin alkaloidlarini konsentratsiyasi oshgani sari mitoxondriya kislorod sarfi kamayib bordi. Tadqiqot natijasiga ko‘ra, $PbC_4H_6O_4$ ning 150 mkM konsentratsiyasi faol tarzda mitoxondriya kislorod sarfini oshishiga olib keldi. Jigar

mitoxondriyasining membranasi LPO jarayoniga DGK ning 60 mkM konsentratsiyasi ingibirlovchi ta'sir ko'rsatdi. F-18 alkaloidi esa DGK ga nisbatan LPO jarayonini kuchsiz ingibirladi. DGK va F-18 alkaloidi hamda ular asosida sintezlangan DKV-11 kon'yugatini 30 mkM konsentratsiyasi mitoxondriya membranasi LPO jarayonini jadal ingibirlanishiga olib keldi. F-19 va F-7 izoxinolin alkaloidlarini 80 mkM konsentratsiyalari kuchli ingibirlovchi ta'sir etdi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, mitoxondriya membranasi LPO jarayoniga DGK, F-18, F-19 hamda F-7 izoxinolin alkaloidlariga nisbatan DKV-11 kon'yugati faol ingibirlovchi xususiyatini namoyon qildi. Biofaol moddalarni jigar mitoxondriya membranasi LPO mahsuloti hisoblangan MDA miqdoriga ta'siri o'rganilganda, nazoratga nisbatan ingibirlovchi xususiyatini namoyon etdi.

Dissertatsiyaning «**PbCl₂ bilan chaqirilgan oksidativ stress modelida kalamush jigar mitoxondriyasi disfunktsiyasini digidrokversetin, izoxinolin alkaloidlari va DKV-11 kon'yugati bilan korreksiyalash**» deb nomlangan to'rtinchi bobida OS modelida jigar mitoxondriyasi mPTPga, LPOga, mitoK_{ATP}-kanaliga, antioksidant fermentlar faolligiga va OF jarayoniga DGK, izoxinolin alkaloidlari va DKV-11 kon'yugatining ta'siri o'rganilgan.

Oksidativ stress modelida kalamush jigar mitoxondriyasi yuqori o'tkazuvchan porasiga digidrokversetin, izoxinolin alkaloidlari va DKV-11 kon'yugatining ta'siri. Bir qator tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, Pb²⁺ mitoxondriyada ROS hosil bo'lishini ortishiga sabab bo'lib, OSni toksikologik mexanizmlaridan biri bo'lishi mumkinligi aytilmoqda. Bundan tashqari, Pb²⁺ bilvosita mitoxondriya buzilishlarni keltirib chiqaradi. Mitoxondriya disfunktsiyaning belgisi sifatida shishish mPTP ochilishining eng muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Olib borilgan tajribada mitoxondriya bo'kishini chaqirish uchun induktor sifatida CaCl₂ ning 50 mkM konsentratsiyasidan foydalanildi. Sog'lom kalamushlardan (1-guruh) ajratib olingan jigar mitoxondriyasining CaCl₂ ta'sirida bo'kish nazorat sifatida 100% deb olindi (4-rasm, A va B).



4-rasm. OS modelida kalamush jigar mitoxondriyasi bo'kishiga DGK, F-7, F-18, F-19 va DKV-11 kon'yugatining ta'siri (*P<0,05; n=6).


OS chaqirilgan 2 guruh kalamushlarning jigar mitoxondriyasi PTP ni bo'kishini, nazoratga nisbatan 55% oshirganligi aniqlandi. Pb^{2+} ta'sirida mPTP ochilishi, mitoxondriya bo'kishi chaqiradi va membrana potensialini tushirib yuboradi. Bu esa Pb^{2+} ionlari mPTP ochilishiga olib keladi degan xulosani tasdiqlaydi. OS chaqirilgan 3 guruh kalamushlarga DGK yuborilishi natijasida ularning jigar mitoxondriyasi bo'kishi patologik guruh (2 guruh) ko'rsatkichiga nisbatan, 24,5% ga inbirlanishi aniqlandi. Stress modeli chaqirilgan 4 guruhga F-18 alkaloidi yuborilganda, ularning jigar mitoxondriyasi bo'kishi, 2 guruhga nisbatan 20% ingibirlanganligi aniqlandi. Shuningdek, OS chaqirilgan 5 guruhga DKV-11 kon'yugati, 6 guruhga F-19 alkaloidi va 7 guruhga esa F-7 alkaloidi yuborilganda patologik guruhga nisbatan, mitoxondriya bo'kishi, mos ravishda 32,7%, 4,5% va 16,7% ga ingibirlanganligi aniqlandi (4-rasm, A va B).

Demak, $PbCl_2$ orqali chaqirilgan OS modelida kalamush jigar mitoxondriyasi bo'kishini DKV-11 kon'yugati DGK, F-7, F-18 va F-19 alkaloidlariga nisbatan samarali ingibirladi. DKV-11 kon'yugatining mPTP ingibirlovchi xossasi uning struktura tuzilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Stress modelida kalamush jigar mitoxondriyasi lipidlarining perekisli oksidlanishiga digidrokversetin, izoxinolin alkaloidlari va DKV-11 kon'yugatining ta'siri. Olib borilgan tajribalarda mitoxondriya membrana LPO jarayonini hosil qilish uchun ko'p hollarda Fe^{2+} /askorbat ishlatiladi. Lekin, mitoxondriyada membrana LPO jarayonini Fe^{2+} /sitrat bilan ham hosil qilish mumkin (Almeida et al., 2006). O'tkazilgan *in vivo* tajribalarda jigar mitoxondriya membranasida LPO chaqirish uchun Fe^{2+} /sitratdan foydalanildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, I nazorat guruhida Fe^{2+} /sitrat bilan chaqirilgan LPO jarayonini 100% deb olindi. Kalamushlarda $PbCl_2$ orqali chaqirilgan OS sharoitida (II guruh) kalamush jigar mitoxondriyasi membranasining LPO jarayoni nazorat guruhiga nisbatan 44,6% oshganligi aniqlandi. Olingan natijalardan ma'lum bo'ldiki, DGK, izoxinolin alkaloidlar va DKV-11 kon'yugati OS sharoitida jigar mitoxondriya membranasida LPO jadalligiga tormozlovchi ta'sir etdi. Bulardan DKV-11 kon'yugati DGK va izoxinolin alkaloidlariga nisbatan faolroq ingibirlovchi ta'sirini namoyon etdi.

Biologik tizimlarda LPO turli xil oksidlanish mahsulotlarini hosil qiladi. LPO jarayonida ikkilamchi mahsulot sifatida hosil bo'lishi mumkin bo'lgan ko'plab turli aldegidlar orasida MDA, propanal, geksanal va 4-gidroksinonenal uchraydi (Esterbauer et al., 1990). MDA klinik holatlarda OSni aniqlaydigan asosiy va ishonchli markerlardan biri hisoblanadi (Giera et al., 2012). OS modelida kalamush jigar mitoxondriya membranasining zararlanishi hamda uni DGK, DKV-11 kon'yugati, F-18, F-19 va F-7 izoxinolin alkaloidlari bilan farmakoterapiya qilingandan keyin ularni jigar mitoxondriyalaridagi MDA miqdori aniqlandi. Olingan nazorat kalamushlar guruhida (I guruh) MDA miqdori $1,58 \pm 0,19$ nmol/min mg oqsilni tashkil etdi. OS chaqirilgan kalamushlar guruhida (II guruh) MDA miqdori $3,85 \pm 0,26$ nmol/min mg oqsilni tashkil etib, nazorat guruhiga nisbatan 143,6% ortganligi aniqlandi. OS chaqirilgan va DGK bilan korreksiyalangan kalamushlar guruhida (III guruh) jigar mitoxondriyasining MDA miqdori $2,06 \pm 0,18$ nmol/min mg oqsilni, F-18 alkaloidi (IV guruh) $2,39 \pm 0,23$ nmol/min mg oqsilni,

DKV-11 kon'yugati ta'sirida (V guruh) $1,79 \pm 0,21$ nmol/min mg oqsilni, F-19 alkaloidi (VI-guruh) $2,65 \pm 0,27$ nmol/min mg oqsilni va F-7 alkaloidi bilan korreksiyalangan guruhda (VII guruh) MDA miqdori $2,51 \pm 0,24$ nmol/min mg oqsilni tashkil etdi. OS chaqirilgan II guruhga nisbatan yuqoridagi guruhlar mos ravishda 46,4%, 37,9%, 53,6%, 31,1% va 34,9% ga qayta tiklaganligi aniqlandi (5-rasm).




5-rasm. OS modelida kalamush jigar mitoxondriyasida LPO jarayonida hosil bo'lgan MDA miqdoriga DGK , DKV-11 kon'yugati, F-18, F-19, F-7 izoxinolin alkaloidlarini ta'siri (* $P < 0,05$; $n = 6$).

